


TADBIRKORNI QOʻLLAB-QUVVATLAYDIGAN KOMPLEKS TIZIM YARATILADI



Munosabat

“**Ochiq muloqot mamlakatimizda biznesni rivojlantirishga turtki beruvchi yangi, mukammal institut, samarali mexanizm sifatida shakllandi. Bu galgi samimiy muloqotda tadbirkorlar koʻtargan masalalar asosida besh ustuvor yoʻnalish boʻyicha yangi tashabbuslar eʼlon qilindi.**”



Aktam HAITOV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi fraksiyasi rahbari

➤ Boslanishi 1-betda

Ushbu muloqot mamlakatimizda ishbiarmonlik muhitini yaxshilash va tadbirkorlikni ragʻbatlantirish izchil hamda ortga qaytmas siyosatga aylanganini yana bir bor namoyon etdi.

Davlatimiz rahbari yurtimiz taraqqiyoti yoʻlida oʻziga xos lokomotiv vazifasini bajarayotgan 1 million 200 minglik biznes hamjamiyati vakillarini Tadbirkorlar kuni bilan samimiy qutladi va kelgusidagi ishlariga ulkan muvaffaqiyat tiladi. Bundan besh yil avval tadbirkorlar bilan ochiq muloqot oʻtkazish anʼanasi yoʻlga qoʻyilganidan buyon biznes rivojiga toʻsiq boʻlgan minglab masalalarga qonuniy va asosli yechimlar topilganiga urgʻu berar ekan, ushbu sohaga oid 84 ta qonun, 861 ta farmon va qaror qabul qilinganini alohida taʼkidladi.

— Nima uchun? Tadbirkorlarimizga sharoit yaratib, yangi ish oʻrinlarini koʻpaytirish, odamlarimizni uzoqqa bormasdan, mahallasining oʻzida daromadli qilish uchun, — dedi Prezidentimiz.

Eʼtiborli jihat, bugun jahondagi murakkab vaziyatga qaramay, joriy yilning birinchi yarmida Oʻzbekiston iqtisodiyoti 8,5 foiz oʻsgani, shuningdek, xalqaro reyting agentliklari mamlakatimizning suveren kredit reytingi yanada yaxshilanayotganini eʼtirof etgani barchamizni quvontiradi. Davlatimiz rahbari bu kabi ulkan natijalar, eng avvalo,

tadbirkorlar bilan yelkama-yelka amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi ekanini qayd etdi.

Ilk muloqotdan buyon oʻtgan davr oraligʻida tadbirkorlarning minglab tashabbuslari qonunchilik hujjatlarida, biznesni qoʻllab-quvvatlovchi yangi

tuzilmalar ochilganida va boshqa ijobiy oʻzgarishlarda oʻz ifodasini topgani bu yondashuvning amaliy isbotidir.



Shu kunlarda juda xursandman. Davlatimiz rahbarining tegishli farmoniga koʻra, “Shuhrat” medali bilan taqdirlandim. Bu men uchun mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligi shodiyonasi oldidan katta tuhfa boʻldi. Kichik mehnatimizni ardoqlab koʻkka koʻtargan, barcha sharoitlarni yaratib berib, doimiy eʼtibor, qoʻllab-quvvatlov koʻrsatayotgan Prezidentimizga chuqur minnatdorlik bildiraman. Tadbirkorligimdan gʻururlandim.

HAR BIR IMTIYOZ – IMKONIYAT



Salkam 37-yildan buyon tadbirkorman. “Tikuvchi Anoragul” MCHJda milliy hunarmandlik mahsulotlarini ishlab chiqaramiz. Shuning ortidan oʻnlab xotin-qizlar bandligini taʼminlaganiz. Tadbirkorlik bilan bir vaqtda “Hunarmand” uyushmasining Shahrisabz shahri boʻlimiga rahbarlik qilib kelaman. Faoliyatimning asosiy qismi milliy mahsulotlarni ishlab chiqarib, mahalliy bozorlarda ommalashtirish, jahon bozorlarida keng targʻib qilishga qaratilgan.

Prezidentimizning tadbirkorlar bilan boʻlib oʻtgan bu galgi uchrashuvi ham biz uchun katta bayramga aylandi. Har yili shu ochiq muloqotni intiqib kutamiz. Avvalo, davlatimiz rahbari uchrashuv, qolaversa, beriladigan yangi imtiyozlar biznes egalari faoliyatidagi katta oʻzgarishlar, rivojlanishlarga yoʻl ochadi.

Bu gal ham koʻplab imtiyozlar haqida gapirildi. Ularning aksariyati mening faoliyatimda ham qoʻl keladi. Masalan, mehmonxonalar ochishga subsidiyalarni ajratilishi katta imkoniyatlardan biri. Chunki oʻzimizning ham 10xonalikichikmehmonxonam bor. Bu yerda oʻnlab mehmonga xizmat koʻrsatamiz. Shu yoʻnalishda ham faoliyatimizni kengaytirish harakatidamiz. Shahrisabz turizm shahri boʻlgani bois, sayyohlar oqimi kundan kunga oshib boryapti. Mehmonxonalar, xizmat koʻrsatish sohalariga talab katta. Qolaversa, sayyohlarning milliy hunarmandchilik mahsulotlariga qiziqishi yuqori. Shu bois, sayyohlar uchun mehmonxona xizmatlarini kengaytirib, milliy hunarmandchilik mahsulotlari savdosi orqali madaniy merosimiz, anʼanalarimizni targʻib qilishga intilyapmiz. Bu borada berilayotgan subsidiyalarni biz uchun navbatdagi engillikdir.

Meni quvontirgan yana bir muhim jihat — davlatimiz rahbarining kadrlar tayyorlash va oʻqitish masalasiga alohida eʼtibor qaratgani boʻldi. Ochigʻi, bu — tadbirkorlarni eng koʻp qiynaydigan masalalardan. Oʻzim ham 20 ta tikuv mashinasi ishlataman, lekin bularni tuzatadigan mutaxassis topilmayapti. Kexsa hunarmandlarimiz deyarli yoʻq. Yoshlar orasida esa tikuvchi hunarmandlarni topish ancha qiyin. Bu borada oʻqitishni yoʻlga qoʻyadigan tadbirkorlarga qator yengilliklar beriladi. Nasib boʻlsa, oʻzim ham texnikum ochib, yoshlarni milliy hunarmandchilik va boshqa sohalarda oʻqitishni niyat qildim.

Prezidentimizning tadbirkorlar bilan bu galgi uchrashuvi Xorazm viloyatida boʻlayotgani ham alohida ahamiyatli. Ochigʻi, Xivaga birinchi marta kelishim. Xuddi davlatimiz rahbarining oʻzi bizni bu yerga taklif qilgandek, mehmondek his qilypamiz oʻzimizni. Bir necha kundan buyon shu yerdamiz va tarixiy shahar goʻzalliklarini tomosha qilib, yurtimizdagi shiddatli rivojlanishlardan faxrlanyapmiz. Tadbirkorlarning oʻzaro muloqoti uchun ham qulay fursat boʻldi. Bir-birimiz bilan fikr almashib, hamkorlik oʻrnatyapmiz.

Uchrashuvdan juda katta taassurot va hayajon bilan chiqdim. Bu yerda eshitganlarimni tezroq oila aʼzolarim, yaqinlarim, doʻstlarimga aytib berishga oshiyapman. Yuragim quvonchdan hapqirib uryapti. Yangi Oʻzbekistonimizga, bizni doim qoʻllab-quvvatlab, yonimizda turgan Prezidentimizga koʻz tegmasin.

Gulnora CHORIYEVA,
“Tikuvchi Anoragul” xususiy korxonasi
rahbari, “Shuhrat” medali sohibi

EʼTIROF – ULKAN MARRALARGA CHORLOV

Tong yorishishi bilan dalaga kirib kelgan dehqonning niyati bitta — ona zamin bagʻriga qadalgan har bir niholni asrab-avaylash, mehnatini hosilga aylantirib, el dasturxoniga tortiq qilish. Zero, yer bilan tillashayotgan insonning har bir qadami ortida yurt farovonligi mujassam.

Bugun mamlakatimizda fermer va tadbirkorlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar ana shu ezuq maqsadlarni yangicha mazmun bilan boyitmoqda. Tadbirkorga ishonch bildirish, tashabbusini qoʻllab-quvvatlash, mehnatini munosib ragʻbatlantirish yurtimizdagi islohotlarning muhim yoʻnalishlaridan biriga aylandi. Bu esa, oʻz navbatida, har bir mulkdorni yanada katta maqsadlar sari undamoqda.

Prezidentimizning farmoyishiga koʻra, “Faol tadbirkor” koʻkrak nishoni bilan taqdirlanganim kutilmagan voqea boʻldi. Bu men uchun alohida sharaf va katta masʼuliyatdir. Ushbu yuksak eʼtirofini nafaqat oʻz mehnatimga, balki fermer xoʻjaligimda fidokorona mehnat qilayotgan jamoamizga,

umuman, qishloq xoʻjaligi sohasida mehnat qilayotgan minglab yurtdoshlarimizga bildirilgan yuksak hurmat ifodasi, deb qabul qilaman.

Mana, oʻn yildirki, jamoamiz aʼzolari har yili paxta va gʻalladan yuqori hosil olib, rejanii ortigʻi bilan bajarib kelyapti. Bu yil 700 gektar maydonga “Xitoy-57” gʻoʻza navi ekildi. Ayni paytda qoʻshqator usulda ekilgan gʻoʻzalarimiz baravj rivojlanmoqda. 200 gektar maydonda ekinlar tomchilatib sugʻorish texnologiyasi asosida parvarishlanaypti. Bu kabi zamonaviy yondashuvlar yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, mehnat unumdorligini oshirish hamda hosildorlikni yuksaltirishda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Bugun xoʻjaligimizda 50 ta doimiy ish oʻrni ochilgan. Ellikdan ziyod qishloq xoʻjaligi texnikasiga egamiz. “Yangi Arnasoy Aziz texnikasi” MCHJga qarashli texnika saqlash markazimizdagi mashina va agregatlar shartnoma asosida boshqa fermer xoʻjaliklariga ham xizmat koʻrsatmoqda. Koʻp tarmoqli fermer xoʻjaligimizda 60 bosh nasli qoramol, 300 bosh parranda boqilmoqda. Ikki gektar maydonda baliqchilik yoʻlga qoʻyilgan.

Bularning barchasi, avvalo, yurtimizda tadbirkorlik uchun yaratilgan imkoniyatlar samarasidir. Davlatimiz tomonidan fermer va tadbirkorlarning tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash, moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga koʻmaklashish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish uchun sharoit yaratilayotgani natija bermoqda.

Davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan uchrashuvida bildirilgan fikrlar ham bizga katta kuch va ishonch bagʻishladi. Unda tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, ishbiarmonlarni qoʻllab-quvvatlashni yangi boshqichga olib chiqish, biznes egalaringni muammolarini joyida hal etish, yangi loyihalar va tashabbuslarga keng yoʻl ochish zarurligiga alohida eʼtibor qaratilgani biz, mulkdorlar uchun muhim dasturlamaldir.

Ayniqsa, tadbirkorlikni faqat daromad manbai emas, balki yangi ish oʻrinlari, aholi farovonligi, hududlar taraqqiyoti va mamlakat iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishning muhim omili sifatida koʻrish zarurligi zimmamizga yanada katta masʼuliyat yuklaydi. Bugun tadbirkorga bildirilayotgan ishonch va yaratilayotgan imkoniyatlarga munosib javob berish, yangi loyihalarini hayotga

investitsiyalar” ekotizimini yaratish vazifasi belgilangan ana shu kamchiliklarga barham beradi.

Prezidentimizning eksport salohiyatini oshirish va milliy brendlarni tashqi bozorlarga olib chiqishga oid tashabbusi esa korxonalar faoliyatiga sunʼiy intellekt va avtomatlashtirilgan boshqaruv integratsiya qilinishi hisobiga daromadlar ortishi, mahalliy kompaniyalar xalqaro kapital bozoriga chiqib, milliardlab dollar jalb etish imkoniga ega boʻlishi hamda yuz minglab yoshlar zamonaviy, yuqori daromadli kasblarni egallashiga yoʻl ochib beradi.

Turli nazorat organlari tomonidan tadbirkorlar faoliyati takroriy tekshiruvlar oʻtkazilishi, katta moliyaviy jarimalar va litsenziyalash-ruxsat berish jarayonidagi baʼzi byurokratik bosimlar beshinchi — biznesga maʼmuriy bosimni keskin kamaytirish tashabbusiga turtki berdi deyish mumkin. Tez orada kichik biznes uchun 3 yillik moratoriy joriy qilinishi, “sukut — rozilik” tamoyilining kuchga kirishi, jarimalarining kamaytirilishi va boshqa yengilliklar biznes uchun xotirjam, erkin va shaffof muhit yaratishga xizmat qiladi.

“**Ushbu hayotiy tashabbuslar tadbirkorlar uchun gʻoyat dolzarb boʻlib turgan masalalarni hal qilishga qaratilgan. Ular kichik biznesga yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Oʻrta biznesni rivojlantirishga turtki beradi. Qisqasi, tadbirkorlarga yangi marralarni zabt etish uchun zamin hozirlaydi.**”

Muloqotda ilgari surilgan tashabbuslar tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash, ishbiarmonlik muhitini yanada yaxshilash va xususiy sektorning iqtisodiyotdagi oʻrnini mustahkamlashda juda muhim. Zero, tadbirkor uchun yaratilgan har bir qulaylik — yangi ish oʻrni, barqaror daromad va mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti uchun mustahkam zamin demakdir.

UCHRASHUVDA BILDIRILGAN TAKLIFLARNI IJOBIY QABUL QILDIK



Tadbirkor tabiatan natijani oʻylaydi. Chunki foyda boʻlmasa, korxonani rivojlantirish, yangi uskunalar olish, ish oʻrinlarini koʻpaytirishning imkonii yoʻq. Korxona daromadli ishlasa, quvvati ortadi, yangi loyihalariga qadam qoʻyiladi. Eng muhimi, bu jarayondan nafaqat korxona egasi, balki unda mehnat qilayotgan odamlar, ularning oilasi va umuman, jamiyat manfaat koʻradi.

Shu bois, uchrashuvda bildirilgan takliflarni juda ijobiy qabul qildik. Davlatimiz rahbarining har bir tashabbusida ishlash, oʻsish, yangi loyiha boshlash va imkoniyatlarni kengaytirish uchun yangi sharoitlar yaratish maqsadi koʻrinib turibdi.

Albatta, imkoniyatning oʻzi hali natija degani emas. Uni toʻgʻri anglash, unumli foydalanish va amalda natija koʻrsatish kerak. Menimcha, bugungi ishbiarmonning eng katta vazifasi ham shu — yaratilgan sharoitni real iqtisodiy natijaga aylantirish.

Bugun berilgan imkoniyatdan toʻgʻri foydalangan korxona ertaga oʻz ishlab chiqarishini kengaytiradi, yangi bozorlarga chiqadi, koʻproq mahsulot ishlab chiqaradi, ish oʻrinlari ochadi. Bu esa mamlakatimiz iqtisodiy qudrati va xalqimiz farovonligiga xizmat qiladi.

Rejep AVEZOV,
tadbirkor



Islohot odimlari



SANOAT QUVVATIDAN RIVOJLANAYOTGAN VOHA

Sanoat har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim sektor. Shu bois, mamlakatimizda sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish hamda yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa, hududlar bo'yicha sanoat imkoniyatini oshirish, xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash hamda mahalliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari samara bermogda. Bu borada Qashqadaryo viloyatining ham mamlakatimiz sanoat xaritasidagi mavqei muttasil oshib boryapti.

Hudud iqtisodiyoti an'anaviy ravishda tabiiy resurslar, xususan, neft-gaz, paxta va qishloq xo'jaligi mahsulotlariga tayanadi. Sanoat sohasida esa gazni qayta ishlash, kimyo ishlab chiqarish, to'qimachilik, oziq-ovqat va qurilish materiallari tarmoqlari asosiy o'rinni egallaydi. Viloyatning sanoat sektori ancha yildan buyon ichki bozor ehtiyojini qoplash bilan birga eksport salohiyatini kengaytirish maqsadida modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonini boshdan kechirmogda.

Investitsiya muhitining yaxshilanishi hududning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda yangi ish o'rinlarini ochishda hal qiluvchi omilga aylanadi. Amaliy sa'y-harakatlar tufayli sanoat tarmog'idagi ijobiy dinamika iqtisodiyotning boshqa sohalariga ham janjirli ta'sir ko'rsatib, infratuzilmani rivojlantirish va biznes subyektlari faoliyatini jadallastirish imkonini berdi. Buni so'nggi yillarda qayd etilgan qator statistik ko'rsatkichlar yaqqol tasdiqlaydi.

Xususan, 2026-yili viloyatda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish qiymati 47 ming 788,6 milliard so'mga yetib, 2017-yildagiga nisbatan 36 ming 842,8 milliard so'mga ko'paydi. Shuningdek, aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari qiymati 12 million 992,6 ming so'mga yetdi.

Viloyatda xizmatlar hajmi keskin oshdi. Jumladan, 2017-yildagiga nisbatan 10 ming 698 milliard so'mdan 54 ming 118 milliard so'mga yetdi. Bu esa 5,1 marta o'sish kuzatilganini anglatadi. Tadbirkorlik yo'nalishlarida ham jadal sur'at kuzatilib, viloyatda faoliyat yuritayotgan

korxonalari soni 2017-yildagi 14 ming 347 tadan bu yil 32 ming 838 taga yetdi. Shuningdek, xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar soni 200 dan oshdi. Xususan, bunday korxonalar soni 263 taga yetib, 2017-yildagiga nisbatan 4,6 baravar o'sish kuzatildi.

Ishlab chiqarish muhiti yaxshilanishi natijasida to'plangan ushbu resurs va tajriba endi hududiy iqtisodiyotni strategik bosqichga olib chiqish, ya'ni yuqori texnologik va tizimli loyihalarni amalga oshirish imkonini beryapti.

Joriy yil mart oyida Prezidentimiz Qashqadaryo viloyatida islohotlar natijadorligi hamda kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar yuzasidan yig'ilish o'tkazgan edi. Unda sanoatda 1,7 milliard dollarlik 195 ta loyihani ishga tushirish, qo'shimcha ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish hamda mikrosanoat markazlari tashkil etish orqali tarmoqlarda yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash zarurligi qayd etilgandi.

Shuningdek, Muborak maxsus innovatsion sanoat zonasi va Qarshi yashil texnologiyalar sanoat zonasini tashkil etib, 2026-2027-yillarda ularda 1,1 milliard dollarlikdan ziyod 36 ta loyihani amalga oshirish va 6000 ga yaqin yangi ish o'rini ochish rejalashtirilgan.

Qashqadaryo sanoati, iqtisodiyoti bugun qazib chiqarish va xomashyo yetkazib berishga asoslangan an'anaviy modeldan chuqur qayta ishlash, yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish bosqichiga transformatsiya qilinayapti. Hududda shakllantirilayotgan yangi ishlab chiqarish xabarlari va muqobil energiyaga tayangan quvvatlar viloyatning eksport profilini to'liq diversifikatsiya qilish imkonini beradi. Yirik majmualar atrofida kichik va o'rta sanoat korxonalarni kooperatsiya asosida birlashtirish orqali hududda uzluksiz logistika hamda ta'minot zanjiri shakllanayapti.

Natijada viloyat nafaqat sanoat xomashyo bazasi, balki xalqaro bozorda raqobatbardosh, texnologik jihatdan mustaqil va yuqor muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi yirik sanoat markaziga aylanib bormogda.

**Akbar RAHMONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri**

"Asakabank" tomonidan 2 ta lot uchun 4,6 gektar yer maydoni auktsion orqali xarid qilingan va mazkur bankning jami 321 milliard so'm mablag'lari hisobidan 211 milliard so'mlik 300 o'rinli 4 qavatli mehmonxona hamda 110 milliard so'mlik 5 ming kvadrat metrli 2 qavatli savdo kompleksi va restoran qurib bitkazildi.



Kechagi ezgu niyat – bugungi haqiqat

Bir vaqtning o'zida to'rt faslni kuzatish istagida Qashqadaryoga kelayotgan sayyohlar oqimi yil sayin ko'paymoqda. Mubolag'a emas, ma'lum bir vaqtda qaysidir hududda qish, yana birida bahor, birida yoz, bir tomonida kuz faslini guvohi bo'lgan kishi tabiatning mo'jizakorligiga tasanno aytadi. Bu jarayonga guvoh bo'lish uchun esa voha tomon yo'lga otlanish, ona zamin siru sinoatlaridan voqif bo'lmoq kerak.



BUNDA TO'RT FASL MUJASSAM

Sir emas, viloyatda ilgari turizm sohasida muammolar bisyor, talabga javob berishi mumkin bo'lgan sanoqligina sayyohlik manzili bor edi. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan ushbu yo'nalishda bir qancha ishlar qilindi. Buni o'tgan ikki-uch yilda viloyatga sayyoh sifatida tashrif buyuruvchilar soni ortganidan ham bilish mumkin.

Prezidentimizning 2023-yil 28-noyabrda "Qashqadaryo viloyatining tog'li-rekreasion hududlarida zamonaviy xizmat ko'rsatish va turizm obyektlarini barpo etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilinishi vohada turizm yo'nalishini yangi bosqichga olib chiqdi. Xususan, mazkur qarorga ko'ra, 240 gektarli "Shahrisabz" turistik markazi hududida turizm va yondosh yo'nalishlardagi infratuzilma obyektlari qurish bo'yicha master-reja ishlab chiqildi.

sport turi bilan shug'ullanish imkoniyatini ham yo'lga qo'yilishi rejalashtirilgan.

O'tgan yilning 4-6-oktabr kunlari Rossiyaning Qozon shahrida o'tkazilgan "Kazan EKSP" tadbiri doirasida viloyat hokimi boshchiligidagi delegatsiya Shahrisabz tumanida umum mavsumiy dam olish maskanini tashkil etish loyihasi bo'yicha muhim kelishuvlarga erishdi. Natijada xorijiy hamkorlar bilan birga hududning master-rejasi ishlab chiqildi. Bu jarayonda Avstriyaning "Doppel Mayer" kompaniyasi hamda Ispaniya, Polsha, Slovakiya va rossiyalik mutaxassislar bir necha marotaba joyiga chiqqan holda hududning imkoniyatlarini o'rgandi. Tabiati, iqlim sharoiti, qulayliklari haqida ma'lumotlar olindi. Master-rejaga ko'ra, umumiy 2,9 ming gektar tog'li hududda 200 kilometrli tog' chang'i trassalari, 13,9 kilometrli har xil turdagi dor yo'llari, 160 ming 400



Sarvar QAYUMOV,
Qashqadaryo viloyati hokimligi
huzuridagi turizm infratuzilmasini
rivojlantirish va boshqarish
departamenti davlat muassasasi
direktori

etish, infratuzilma loyihalarining master-rejalariga muvofiq bajarish maqsad qilingan. Shuningdek, turizm sohasi imkoniyatlarini kengaytirish yuzasidan ham vazifalar belgilab berildi.

Mazkur hujjatga asosan, tijorat banklari ko'magida ishlab chiqilgan master-rejaga ko'ra Qamashi tumanida turizm obyektlariga ixtisoslashgan 41 gektar yer-uchastka auktsion savdolariga chiqarildi. Muhimi, qarorda viloyat turizm salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladigan qo'shimcha imtiyozlar kiritilgan. Mazkur

summasining kamida 15 foizi to'langanda, unga yer uchastkasiga bo'lgan ijara va mulk huquqini kredit ta'minoti sifatida garovga qo'yish huquqi berildi. Bu yangilik bugun vohamizda shu tizimda faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar quvonchiga sabab bo'ldi.

Xususan, "O'zsanoatqurilishbank" tomonidan "Shahrisabz" turistik markazi hududidan 2 ta lot uchun 5,05 gektar yer maydoni auktsion orqali xarid qilingan hamda mazkur bankning kredit mablag'lari hisobidan 212 milliard so'mlik 300 o'rinli 4 qavatli mehmonxona hamda 72 milliard so'mlik 300 o'rinli xostel, restoran, sport zali, bolalar maydonchasi kabi jami 284 milliard so'mlik loyihalar ishga tushirildi hamda bugungi kunda faoliyat yuritmoqda.

"Asakabank" tomonidan 2 ta lot uchun 4,6 gektar yer maydoni auktsion orqali xarid qilingan va mazkur bankning jami 321 milliard so'm mablag'lari hisobidan 211 milliard so'mlik 300 o'rinli 4 qavatli mehmonxona hamda 110 milliard so'mlik 5 ming kvadrat metrli 2 qavatli savdo kompleksi va restoran qurib bitkazildi. Milliy bank tomonidan 170 milliard so'm investitsiya hisobiga 20 ta kabinaga ega bo'lgan 2084 metr uzunlikdagi dor yo'li, avtoturargoh, zamonaviy ovqatlanish va xizmat ko'rsatish majmuasi tashkil etilgan.

"Hisorakgidroqurilish" MCHJ tomonidan ham katta ishlar amalga oshirilmoqda. Hududda tashkilot tomonidan 135,4 milliard so'm mablag' evaziga 8 gektar yer maydonida kuniga mingta sayyohga kuzatib ko'rsatuvchi dam olish maskani hamda 3,7 gektarga ekopark qurilish ishlari davom etmoqda.

Turizm departamenti tomonidan esa 3,2 gektar yer maydonida kooperatsiya usulida yilliga 160 tonna forel balig'i yetishtirishga ixtisoslashgan 20ta hovuz, shuningdek, sayyohlar uchun baliq ovlash xizmatini tashkil etish uchun 3 ta katta sun'iy ko'l hamda restoran, besedkalar qurilib zamonaviy "Baliqxona" kompleksi, 38 sotix yer maydonida 500 bosh o'rdakchilik loyihasi qurilishi amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari, master-rejaga asosan 10 kilometr uzunlikda salomatlik, piyodalar va veloyol'aklar qurilib, yo'lak panjalaralari, 300 ta tungi yoritish chiroqlari, chiqindi urnalari, o'rindiqlar, 2 ta 20 metrli hamda 2 ta 35 metrli osma ko'priklar o'rnatildi.

Joriy yilning o'tgan davri davomida piyodalar yo'laki, daryo bo'yida 3 ta yozgi restoran, 6 ta muzqaymoq sotish shoxobchasi, bolalar atraksion parki tashkil etildi. Shu bilan birga, piyodalar yo'laki, mahalliy budjet mablag'lari hisobidan bolalar maydonchasi, yoshlar xiyoboni, nuroniylar maskani hamda bir nechta sharshara va favvoralar qurib bitkazildi.

2030-yilga qadar mazkur hududga tashrif buyuruvchi mahalliy sayyohlar sonini 6 million nafarga hamda xorijiy sayyohlar sonini 200 ming nafarga yetkazish rejalashtirilgan.

Sirasini aytganda, yo'nalishga kiritilayotgan har bir imtiyoz, qulayliklar ishlab chiqarish doira vakillarining tizimdagi faoliyatini yanada kengaytiradi. Turizm xizmatlari sifati yaxshilanadi. Natijada sayyohlar tashrif ortib, ularning mehmon bo'lishi ikki-uch kunga uzayadi. Bu esa iqtisodiy barqarorlik oshishiga olib keladi, aholi bandligini ta'minlash uchun muhim omilga aylanadi.

O'zbekiston – jahonda o'z o'rnini va mavqega ega davlat. Yil sayin shiddat bilan rivojlanmoqda. Buni butun dunyo ko'rib turibdi.

ASRGA TATIGULIK YILLAR



Shukronalik

Men ko'p yillar chorvachilik sohasida ishladim. O'ttiz uch yil tumandagi yirik qorako'lichilikka ixtisoslashgan "Pachkamar" xo'jaligini boshqardim. Bu davrda xo'jalik chorvadorlariga yengil bo'lishi uchun 4 ta qishloq yo'li asfaltlandi, 7 ta qishloqda yangi maktab, 3 ta qishloqda vrachlik punkti qurildi.

Keyingi yillarda Prezidentimiz tomonidan qilinayotgan katta-katta loyihalarini, bunyodkorlik ishlari, o'zgarishlarni xalqimiz ko'rib, bilib turibdi. Masalan, birgina tadbirkorlik, tibbiyot, xalq ta'limi, qishloq

xo'jaligi, qurilish, turizm, sport sohalarini olib ko'raylik. Bu sohalarida erishilgan ulkan yutuqlar, natijalardan dil yayraydi.

Davlatimiz rahbarining e'tibori tufayli shahar va qishloqlarimizning qiyofasi kundand-kunga o'zgarmogda. Bu esa fuqarolarning ko'nglini tog'dek ko'taryapti.

Qoraqalpog'istonda bo'lgan o'zgarishlar kishi ko'zini quvontiradi. Mo'ynoq juda og'ir ahvolda edi. Hozir borib ko'rsangiz, havasingiz keladi. Yangi-yangi uylar qurildi, mahallalar obod bo'ldi. Parklar, bozorlar

barpo etildi. Mo'ynoq aeroporti ta'mirlanib, bu yerga keluvchi mehmonlarning safi uzilmay qoldi. Orol dengizi o'rnidagi ekologik vaziyatni yaxshilash maqsadida 2,2 million tup to'ta va boshqa daraxt ko'chatlari ekildi.

Samarqand azaldan turistlar shahri bo'lgan. Men 1969-1974-yillarda bu shaharda o'qiganman. O'sha davrlarda temir yo'l vokzalidan to Registonigacha bitta ko'cha bor edi. Hozir shahar tubdan o'zgardi. Dunyoning haqiqiy "sayqali" bo'ldi. Bugun shaharda katta-

katta yig'linlar, sammitlar o'tkazilmoqda, ularda dunyo mamlakatlari rahbarlari qatnashmoqda. Samarqand aeroportiga qarag. Xuddi ochilib turgan kitobga o'xshaydi. Bu esa Samarqand qadimdan ilmu fan, madaniyat o'chog'i ekanini bildiradi.

Men G'uzor farzandiman. Viloyatimiz va tumanimizda bo'layotgan o'zgarishlar, katta-katta ishlarni ko'rib, ko'nglim tog'dek ko'tariladi. Chunki davlatimiz rahbari sa'y-harakati asosida viloyatimiz qiyofasi tubdan o'zgardi. Eng og'ir pandemiya sharoitida noyob "O'zbekiston GTL" zavodi qurib bitkazildi. Bu aytishga oson. Lekin qanchadan-qancha qiyinchiliklar bo'lgani faqat Yaratganga ayon. Bu asr qurilishi tufayli endilikda ko'plab odamlar ishlari bo'ldi. Eng asosiy, zavodda mahalliy yoshlar ishlayapti. Zavod cho'lu biyobon, odam yursa oyog'i, qush uchsa qanoti kuyadigan joyda qad rostladi. Bu zavod turdosh korxonalar orasida dunyoda beshinchisi hisoblanadi.

Viloyatimizda Ko'kdala tumanining tashkil etilishi bilan chiroqchiliklarning ko'p yillik orzu-umidlari amalga oshdi. Ikki yarim yil ichida cho'lda yangi Ko'kdala tumani markazi barpo etildi. Mirakida daryoning ikki tomonidan qurilgan bog'-rog'lar, dam



O'tkir JUMAYEV,
O'zbekiston Respublikasida
xizmat ko'rsatgan qahqador

olish hududlari, ko'p qavatli mehmonxonalar, mehmon uylari odamning havasini keltiradi. G'yelon va Maydanakdagi o'zgarishlar — bularning hammasi Prezidentimiz tashabbusi bilan xalqimizning buguni va ertasi uchun bunyod etilmoqda. Bugun viloyatimizning qaysi mahallasiga borsangiz ham odamlarning ko'tarinki kayfiyatiga guvoh bo'lasiz.

Biz tinch-totuv zamonada yashayapmiz. Inson uchun bundan ziyod baxt bormi? Shukronalik oliy ne'mat. Tumanimizning Dashtobod mahallasidagi odamlarning mehnatini ko'rib havas qilasiz. Bu qishloq aholisi o'zining halol

mehnati bilan rizq, obro' topib, shon-sharafga erishmoqda. 12-15 yil oldin qishloqda bor-yo'g'i 8-10 ta shaxsiy avtomashina bor edi. Bugun esa ularning soni 800-900 taga yetdi. Chunki qishloq aholisi shu kecha-kunduzda bir sutkada 500-550 tonna pomidor, bodring yetishtirib, tumanimiz, viloyatimiz, qolaversa, qo'shni viloyatlar bozorlariga yetkazib beryapti.

Yaqinda G'uzorning "Yangi O'zbekiston" massivida 20 ta 10-15 qavatli uy qurilishi boshlandi. Davlatimiz rahbarining topshirig'i bilan "Mustaqillik" MFY hududida qurilgan "Nuroniylar maskani" nuroniylarning haqiqiy sevimli maskaniga aylanadi.

Men ana shu ulug' mamlakatning oddiy fuqarosiman. Bir umr chorva bilan shug'ullanib keldim. Chorvada fayz, baraka ko'p, u rizq-ro'zimiz. Shuning uchun ham har doim davlatimiz rahbari bilan uchrashganimda chorvachilikni avholini so'raydim. Men u kishining bu xislatlarini juda hurmat qilaman.

Prezidentimizning 2020-yildagi tegishli farmoni bilan 68 yoshimida "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan chorvador" faxriy unvoni bilan taqdirlandim. Ushbu unvonni davlatimiz rahbarining qo'ldan olish men uchun baxt, sharaf bo'ldi va yelkanga mas'uliyat ham yukladi.

Mustaqilligimizning 35 yillik yubileyi ulkan tarixiy sana. Bu bayram xalqimiz uchun yanada yaxshi kunlar, tinchlik, osoyishtalik, yangi muvaffaqiyatlar, omad olib kelsin. Istiqbolimizga ko'z tegmasin!



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

Aholini ijtimoiy himoya qilish yondashuvlari tubdan o‘zgardi. Endi har bir shaxsning real ehtiyojlariga moslashgan manzilli ko‘mak berilyapti. Davlat xizmatlari raqamlashtirildi. Yurtimizda og‘ir turmush sharoitiga tushgan oilalarning ijtimoiy va iqtisodiy faolligini tiklash, mustaqil oyoqqa turishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish ustuvor vazifaga aylandi.



“Inson” markazlari:

XONADONLARGA QUVONCH OLIB KIRAYOTGAN MANZILLI DASTURLAR



Jamshid RAHMONQULOV,
Ijtimoiy himoya milliy agentligi
Qashqadaryo viloyati boshqarmasi
boshlig‘i

Keyingi yillarda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan ijtimoiy xizmatlarni mahalla darajasida tashkil etish maqsadida tuman va shaharlarda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari hamda har bir mahallada kompleks ijtimoiy xizmat ko‘rsatuvchi ijtimoiy xodim faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Natijada “Inson” markazlari tomonidan 12 toifadagi shaxslarga ko‘rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlari soni 140 dan ortdi. Uyma-uy yurish orqali ijtimoiy xodimlar tomonidan qariyb 69,8 ming nafar himoyaga muhtoj fuqarolar aniqlandi. Shuningdek, ijtimoiy xizmatlarni mahallaga yo‘naltirish orqali 300 tadan ortiq mahallalarga yangi ijtimoiy xizmatlar kirib bordi. Ehtiyojmand oilalar bilan manzilli ishlash maqsadida “Kambag‘al oilalar reyestri” joriy qilindi.

Jumladan, 2025-yilda 215,5 mingta oilada kambag‘allik so‘rovnomasi o‘tkazilib, ularning 88,2 mingtasi “kambag‘allik reyestri”ga kiritildi. “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi doirasida reyestrdagi oilalarga tuzilgan individual rejalarda 695,9 mingta xizmatlar ko‘rsatildi.

Joriy yilning 1-fevralidan boshlab “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” va “Kambag‘al oilalar reyestri” negizida ijtimoiy reyestr joriy etildi. Reyestrga kiritilgan oilalar ijtimoiy-iqtisodiy holatidan kelib chiqib, 3 ta toifaga, ya‘ni “Davlat ta‘minotidagi oila”, “Kambag‘al oila” va “Kambag‘allik chegarasidagi oila”ga ajratildi. Bunda “Ijtimoiy reyestr”dagi oilalarga 120 turdagi davlat tomonidan berilgan imtiyozlardan foydalanish va yordamlar ko‘rsatish belgilab qo‘yildi. Natijada reyestrdagi oilalarning 6,5 ming nafar farzandi maktabgacha ta‘limga, 8,4 ming nafar o‘g‘il-qiz maktablardagi to‘garaklarga jalb qilindi. Ijtimoiy reyestrga kiritilgan oilalarning o‘quv yilini “a”lo” baholarga o‘qiydigan 2977 nafar farzandi yozgi oromgohlarga yuborildi. 1 guruh nogironligi bo‘lgan va mehnatga layoqatli a‘zosi bo‘lmagan 359 ta oila xonadoni “energiya tejankor” qilib moslashtirib, ta‘mirlab berilmoqda.

Prezidentimizning “O‘zgarlar parvarishiga muhtoj shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida o‘zgarlar parvarishiga muhtoj shaxslarga ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar ko‘lamini sezilarli darajada kengaytirildi. Endi fuqarolarga faqat muassasalarda emas, balki ularning yashash joyida ham ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, individual ehtiyojidan kelib chiqib yordam tashkil etish hamda davlat va nodavlat sektor hamkorligini rivojlantirish bo‘yicha yangi mexanizmlar joriy etildi. Natijada “Faol hayotga qadam” dasturi doirasida 4354 nafar o‘zgarlar parvarishiga muhtoj shaxs ijtimoiy xizmatlar bilan qamrab olindi. Ularning parvarishi bilan band bo‘lgan 2236 nafar shaxsning bandligi ta‘minlandi. Shu jarayonda bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimida muhim institutsional o‘zgarishlar amalga oshirilganini ham ta‘kidlash lozim. Xususan, yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni qo‘llab-quvvatlash,



Ijtimoiy himoya



ularni oilaga joylashtirish, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakolatlar yagona tizimga birlashtirildi hamda vasiylik va homiylik organlarining bolalar huquqlarini himoya qilishga oid funksiyalari agentlik tizimiga o‘tkazildi.

Vasiylik va homiylik tizimining soddalashtirilishi yo‘nalishida avvallari vasiylik va homiylik tayinlash jarayonida fuqarolardan ko‘plab hujjatlar talab etilardi. Hozir raqamlashtirilgan tizimlar va davlat organlari o‘rtasidagi elektron integratsiya natijasida ortiqcha hujjatlarni yig‘ish amaliyoti bartaraf etildi. Fuqarolar mahalladagi ijtimoiy xodimga murojaat qilishi bilan zarur ma‘lumotlar elektron bazalar orqali olinib, vasiylik yoki homiylik 1-2 soat ichida rasmiylashtirilmoqda. Natijada Qashqadaryo viloyatida 2024-yil boshida vasiylik va homiylik belgilangan bolalar soni 1800 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, bugungi kunda ularning soni 6989 nafargacha yetdi.



qo‘yilib, vaucher tizimi asosida yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga 13 turdagi ijtimoiy xizmat va yordamlar ko‘rsatish amaliyoti joriy etildi.

Yana bir gap. Ilgari nogironlikni belgilash bo‘yicha avval bemorlar faqat tuman markaziy poliklinikalarning vrachlik-maslahat komissiyalarga og‘zaki murojaat qilishi hamda barcha uchun bir xil davolanish lozim muddatlari talabi mavjud edi. Bugun bu soha ham raqamlashtirilib, shaffof tizim yaratildi. Endi nogironlikni belgilash masalasida “Inson” markazlari, ijtimoiy xodimlar, my.gov.uz portali va oilaviy shifokorlar orqali murojaat qilish imkoniyati yaratildi. Nogironlikni belgilash bo‘yicha hujjatlarni yo‘naltirish oilaviy poliklinikalarga o‘tkazildi, kasallikdan kelib chiqib individual davolanish muddatlari va minimal tibbiy tekshiruv mezonlari belgilandi. Nogironlik sirdan belgilanishi mumkin bo‘lgan kasalliklar soni 48 tadan 60 taga oshirildi, yagona standartlar va elektron baholash tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Qarshi shahridagi umumiy qiymati 30 milliard so‘mlik “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash markazi” uchun yangidan 96 o‘rinli kompleks bino foydalanishga topshirildi. Markaz 60 turdan ortiq 180 ta zamonaviy tibbiy uskuna bilan jihozlandi hamda zamonaviy reabilitatsiya xizmati yo‘lga qo‘yildi. Markazning 5 nafar shifokori Koreya davlatida hamda 1 nafari Yaponiyada malaka oshirib keldi. Bundan tashqari, Koreya davlatidan 2 nafar mutaxassis jalb etilib, markaz mutaxassislari, tibbiyot birlashmalari, tizim muassasalari mutaxassislari zamonaviy reabilitatsiya bo‘yicha o‘qitildi.

Bugun nogironligi bo‘lgan kishilar bandligini ta‘minlash borasida ham tizimli ishlar yo‘lga qo‘yilgan. Xususan, keyingi yillarda viloyatda nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandligini ta‘minlash hisobiga imtiyozlardan foydalanish uchun 143 ta korxona tomonidan 777 ta bo‘sh ish o‘rni yaratilib, 4133 nafar shaxsning bandligi ta‘minlandi. Bundan tashqari, nogironligi bo‘lgan shaxslarga to‘siqsiz muhit yaratish bo‘yicha ishlar amalga oshirildi. Tuman (shahar) ko‘chalarida ijtimoiy ko‘chalar tashkil etilib, imkoniyati cheklangan fuqarolarga moslashtirish ishlari davom etmoqda. 40 ming kilometrdan ziyod piyodalar yo‘laklari, 10 dan ziyod chorraha, 150 dan ortiq avtobus moslashtirildi. Jamoat transportlarini sotib olishda nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun moslashtirilganiga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Bugun nogironligi bo‘lgan bolalarni ta‘lim va ijtimoiy xizmatlar bilan qamrab olish borasida ham ijobiy natijaga erishilayotganini ta‘kidlash lozim. Jumladan, hozir 61 ta davlat bog‘chasida 158 ta inklyuziv guruh tashkil etilib, 210 nafar nogironligi bo‘lgan bola qamrab olindi. Shuningdek, 467 ta maktabda 717 ta inklyuziv sinflar tashkil etilib, 842 nafar nogironligi bo‘lgan bola ta‘limga jalb qilindi. Ta‘lim sifatini oshirish maqsadida 336 maxsus pedagog va 9 assistent-pedagog faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, 143 ta maktabda to‘siqsiz muhit, 168 ta ta‘lim muassasasida korreksion-resurs xonalari tashkil etilgan.

Bundan tashqari, davlat xususiy sherikchilik asosida 45 ta kunduzgi parvarish xizmati tashkil etilib, 738 nafar nogironligi bo‘lgan bola qamrab olindi. Natijada bolalarning parvarishi bilan band bo‘lgan 196 nafar onaning bandligi ta‘minlandi. Tarbiyaviy va mutaxassis shifokorlar tomonidan olib borilgan “tibbiy-korreksion” ishlar natijasida 91 nafar bola sog‘lomlashtirildi va davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlariga chiqarildi. Natijada nogironligi bo‘lgan bolalarni ta‘lim va ijtimoiy xizmatlar bilan qamrov darajasi 77 foizdan 90 foizga yetdi.

Umuman olganda, amalga oshirilgan tizimli o‘zgarishlar shunchaki muayyan sohadaqi yangilanish bo‘lib qolmay, davlatning fuqarolar oldidagi mas‘uliyati va ijtimoiy siyosat mazmunini to‘liq qayta belgilab berdi. Yillar davomida to‘plam qolgan byurokratik to‘siqlar va yagona muvofiqlashtirish mexanizmi yo‘qligi sabab ortga surib kelingan kompleks muammolar endi aniq, raqamlashgan va shaffof mezonlar asosida o‘z yechimini topmoqda.



Yuksalish pallasi

YOSHLAR TAQDIRIGA DAXLDOR YONDASHUV

Yurtimizda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, bandligini ta‘minlash, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, zamonaviy kasb va xorijiy tillarni o‘rganishi uchun imkoniyat yaratish, shuningdek, bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish borasida keng ko‘lamli ishlar qilinmoqda.

Davlatimiz rahbarining 30-iyun — Yoshlar kuni munosabati bilan o‘tkazgan uchrashuvida ham dolzarb vazifalar belgilab olingan edi. Ular ijrosini ta‘minlashda har bir yosh bilan individual ishlash, muammosini aniqlash va yechim taklif qilish asosiy mezoniga aylangan.

Xususan, aholisining qariyb 1 millionini yoshlar tashkil etadigan Qashqadaryo viloyatida yigit-qizlarning ijtimoiy holati muntazam o‘rganilib, “yashil”, “sariq” va “qizil” toifalar asosida manzilli ishlashga qamrab olinmoqda. Yil boshida o‘tkazilgan xatlov natijasida aniqlangan ishsiz 5242 yoshga 456 mas‘ul birlashtirilib, ularning bandligini ta‘minlash bo‘yicha manzilli ishlar bajarildi. Muhimi, har bir yoshning xohishi, qobiliyati va imkoniyatidan kelib chiqib, ishga joylashtirish yoki kasb-hunarga yo‘naltirish choralari ko‘rildi.

Joriy yilda hududdagi ta‘lim muassasalarini 93 ming 494 yigit-qiz bitirdi. Bugunga qadar 30 ming 607 nafarining bandligi ta‘minlandi. Qolgan yoshlarning har biriga doir individual reja ishlab chiqilib, kelgusi faoliyati aniq yo‘nalishlarga ajratilgan.



Abror AHMEDOV,
Qashqadaryo viloyati yoshlar
ishlari boshqarmasi boshlig‘i

Dehqonchilik bilan shug‘ullanish istagidagi yoshlarni qo‘llab-quvvatlash uchun joriy yilda 420 yigit-qizga 325 gektar yer ajratildi. Albatta, ularga yer berishning o‘zi bilan ish bitmaydi. Shu

bois, barcha tumanda o‘quv-amaliy seminarlar tashkil etilib, yuqori daromadli ekinlarni tanlash, sifatli ko‘chat ekish, agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida amalga oshirish va yerdan samarali foydalanish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar berilmoqda.

Yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash borasida ham natijalar salmoqli. Joriy yilda 15,4 ming yoshga 607 milliard so‘mlik kredit ajratilib, 15,7 mingta yangi ish o‘rni ochildi. Xususan, “Oilaviy tadbirkorlik”, “Biznesga birinchi qadam”, “Mahalla” va “Kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash” loyihalari orqali minglab yoshlar o‘z biznesini boshlash imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Shuningdek, “Ko‘mak” loyihasi doirasida xorijiy tillarga ixtisoslashgan o‘quv markazlari ochish istagidagi 53 yigit-qizga 6,7 milliard so‘mlik ssuda ajratildi. Yil yakuniga qadar yana 100 nafar yoshga 13 milliard so‘mlik ssuda ajratish rejalashtirilgan.

Navqiron avlod vakillari o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olishda ham manzilli yondashuv kuchaytirilyapti. Jumladan, jinoyat sodir etishga moyil 2346 yosh 341 mas‘ulga birlashtirildi. Bugunga qadar ularning 1619 nafari, ya‘ni 69 foizi sog‘lomlashtirildi. Barcha mahallada “Qalqon guruhlari” orqali profilaktik tadbirlar, ta‘lim muassasalarida tushuntirish ishlari va jinoyatchilik muhokamalarini muntazam o‘tkazilayotgani samara beryapti.

Yoshlarning hayotidagi muammolari erta aniqlash va ularni ijobiy muhitga yo‘naltirish maqsadida “Jasorat maktabi” loyihasiga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘tgan yili 500, joriy yilning birinchi yarmida esa 300 yigit-qiz ushbu loyihaga jalb etildi. Profilaktik ishlar natijasida shu yilning birinchi 6 oyida ular sodir etgan jinoyatlar soni o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 17,9 foiz kamaydi.

Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish masalasi ham doimiy e‘tibordir. Bugunga qadar “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida 21 ta tanlov va sport musobaqalariga 655 ming 685 kishi qamrab olindi. 30-iyun — “Yoshlar kuni” munosabati bilan viloyatda beshta yangi yoshlar obyekti foydalanishga topshirildi. Shuningdek, viloyatning eng chekka 35 ta mahallasida kutubxona va sport maydonchalari barpo etilmoqda. Bu obyektlar yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bilan birga ijodiy, intellektual va kasbiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun yangi imkoniyatlar beradi.

Bugun yoshlar bilan ishlash tizimi raqamlar, dasturlar va tadbirlar bilangina emas, aniq natija va har bir yosh taqdiriga daxldor yondashuv bilan baholamog‘da. Zero, ularga berilgan imkoniyat ertangi taraqqiyot sari mustahkam poydevordir. Asosiy maqsadimiz esa har bir yosh o‘z iqtidori, bilimi va mehnati bilan jamiyatda munosib o‘rin topishi uchun zarur sharoit yaratishdir.

Bir o‘lkani...



Har bir yurtning o‘z tarovati, nafasi, o‘ziga xos qiyofasi bor. Bu bepoyon dalalar-u baland tog‘lar, qadimiy obidalar-u zamonaviy shaharlar ham bo‘lishi mumkin. Ammo bir yurt haqidagi birlamchi xulosa, avvalo, shu yerlik xalq, oddiy odamlarning fe‘l-atvori, qadriyat va udumlari orqali shakllanadi. Qashqadaryo ham ana shunday o‘ziga xos o‘lka.

Bu vohani birgina so‘z bilan ta‘riflash anchaydin mushkul. Uning bepoyon dalalaridagi kenglik, purviqor tog‘laridagi salobat odamlarning fe‘l-xushiga ko‘chgan, qadimiy shaharlarida tarixning, o‘tmishning, zamonaviy bunyodkorliklarida esa kelajakning nafasi bor. Bu yerda kecha va bugun, tarix va taraqqiyot, an‘ana va yangilanish bir-birini to‘ldirib, o‘ziga xos bir uyg‘unlik kasb etadi. Uning eng katta boyligi, xazinasi mehnatsevar, yangilikka intiladigan, yurt taqdiriga befarq bo‘lmagan insonlaridir.

Bugun ana shu insonlar yashayotgan voha katta o‘zgarishlar davriga yuz tutgan. Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining muhim tamoyillaridan biri hududlarni kompleks rivojlantirish, har bir mahallaning imkoniyatini ro‘yobga chiqarish va inson uchun munosib hayot sharoitlarini yaratish hisoblanadi. Qashqadaryoda amalga oshirilayotgan islohotlar ham ayni shu maqsadga yo‘naltirilgan. Sanoat va tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish, yangi ish o‘rinlari yaratish, ta‘lim va tibbiyot sifatini oshirish, turizm salohiyatidan

samarali foydalanish borasidagi sa‘y-harakatlar hududning bugungi qiyofasini o‘zgartirmoqda, tubdan yangilamoqda.

Vohada sanoatning yangi yo‘nalishlari shakllanayapti. Mavjud salohiyatdan samarali foydalanish, xomashyoni chuqur qayta ishlash, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish va investitsiyalarni jalb qilish orqali hudud iqtisodiyotining tarkibi kengayib bormoqda. Muborakdagi sanoat salohiyati, Qarshi va boshqa hududlardagi ishlab chiqarish loyihalari, tumanlarda rivojlanayotgan kichik biznes va xizmat ko‘rsatish sohasi viloyatning iqtisodiy imkoniyatlari naqadar keng ekanini ko‘rsatayapti.

Qashqadaryoning tuprog‘i unumdor. Yerga mehr berib, mehnatini ayamagan inson, albatta, rohatini ham ko‘radi. Shu bois, qishloq xo‘jaligida ham yangicha yondashuvlar tobora kengayib boryapti. Suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish, hosildorlikni oshirish, mahsulotni qayta ishlash va qo‘shimcha qiymat yaratishga e‘tibor qaratish agrar sohaning yangi imkoniyatlarini ochmoqda. Endilikda faqat hosil yetishtirish emas, balki yetishtirilgan hosilni qayta ishlash, tayyor mahsulot sifatida

ichki va tashqi bozorlarga olib chiqish dolzarb masalaga aylanib bo‘ldi.

Vohaning yana bir ulkan salohiyati — turizm. Shahrisabzning tarixiy qiyofasi, Kitob va Yakkabog‘ning betakror tabiati, tog‘li hududlar tarovatini qadimiy yodgorliklar va albatta boy madaniy meros Qashqadaryoni sayyohlik uchun jozibador maskanga aylantirdi.

Shu o‘rinda yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar borasida ham qisqacha to‘xtalish joiz deb o‘ylayman. Ular zamonaviy kasblarni egallashi, xorijiy tillarni o‘rganishi, tadbirkorlik bilan shug‘ullanib, yangi g‘oyalarni hayotga tatbiq etishi uchun barcha sharoitlar bor. Shu ma‘noda, ta‘lim va ma‘naviyat masalasi hududning taraqqiyot manzarasida alohida o‘rin tutadi.

Bu zamin adabiyot va san‘atga mehr qo‘ygan, so‘zning mas‘uliyatini anglagan ko‘plab ijodkorlarni voyaga yetkazgan. Bugun ham vohada yosh qalamkashlar, shoir va yozuvchilar, publitsistlar o‘z izlanishlarini davom ettirmoqda. Adabiy uchrashuvlar, ijodiy muloqotlar, kitobxonlik tashabbuslari yoshlarning ma‘naviy olamini boyitishga xizmat qilaypti.

Jurnalistika esa bu jarayonning o‘ziga xos ko‘zgusidir. Viloyatda kechayotgan yangilanishlarni xalq bilan bog‘lash, islohotlarning mazmun-mohiyatini tushuntirish, odamlarning hayotidagi o‘zgarishlarni yoritish, muammolari ochiq ko‘rsatish va jamiyatdagi ijobiy tashabbuslarni keng targ‘ib qilishda jurnalistlarning zimmasiga katta mas‘uliyat tushmoqda. Bu esa biz kabi yosh qalamkashlarni o‘z ustimizda tinimsiz ishlash, professional ko‘nikmalarimizni doimiy ravishda rivojlantirib borishga undayapti.

Bir so‘z bilan aytganda, Qashqadaryo bugun o‘zining yangi tarixini yaratmoqda. Bu tarixda bunyodkorlik ham, mehnat ham bor. Islohot ham, inson qadri ham bor! Sanoat va zamonaviy texnologiyalar bilan bir qatorda adabiyot va ma‘naviyat ham mujassam. Eng muhimi, bu tarixni xalqning o‘zi yaratmoqda.

Shu bois, hudud haqida so‘z ketganda, uni birgina jumla bilan ifodalash mumkin: boshqa joyda Qashqadaryo yo‘q!

Rayhon OBLOQULOVA,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy universiteti
talabasi

KO'KDALA: JADAL TUS OLGAN TARAQQIYOTNING AMALIY IFODASI

Yangi O'zbekiston ruhi



Azizbek YUSUPOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Ilgari bu yerlarni bir manzildan ikkinchisiga o'tib ketiladigan, yantoqdan boshqa o'simlik o'smaydigan kenglik deb bilishardi. Biroq bugun dashtning ko'hna bag'rida boshqacha bir sur'at, shiddat paydo bo'lgan. Necha yillar davomida uzog'i yaqin bo'lishini kutgan, o'z taqdirini shu poyonsiz zamin bilan bog'lagan odamlarning hayotida bugun yangi bir sahifa yozila boshlandi.

Bu yerlardan bir zamonlar Samarqand — Balx karvon yo'li o'tgan. Qadimiy Monas kanali (Eski anhor) va quduqlari bu dalilning rost ekaniga isbot. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, Zarafshon daryosi suvi Qashqadaryo vohasiga asrlar davomida Monas kanali o'zani bo'ylab hozirgi Ko'kdala hududi orqali oqqan. Bu suvdan keng foydalanilgan, bog'-rog'lar barpo etilgan.

Mo'g'ullar istilosi davri — XIII asrda irrigatsiya qurilmalari buzilib, yer bilan yakson etib tashlangacha, bu yerlar tashlandiq holga kelib qolgan. So'lim bog'lar va g'allazorlar qaqroq cho'llarga aylangan. Bu hayotdai dalalarni xalq “Qorayantoq” deb atagan. Bu yerda daraxt ko'karmagan, faqat ayrim joylarda yantoq o'sgan. Baland va qalin yantoqzorlar kech kuzda qorayib, dasht shamollarida dengizday chayqalib yotgan. Yantoqzorlar gullab, shira bog'lagach, odamlar asta-sekin yantoq shakarini yig'ib olishni o'rgangan va ufqqa qadar cho'zilgan yalanglik — Qorayantoqqa tag'in hayot qaytgan. U paytlar dasht qishloqlarida uylar bir-biridan yiroqda joylashib, ilon iziga o'xshash egri-bugri dala yo'llari va so'qmoqlar bilan bog'langan.

Yillar o'tib, suv ta'minoti cheklangan sharoitda mahalliy aholi asta-sekin atrof-muhitning tabiiy imkoniyatlariga moslashdi. Mehnat va turmush tarzining o'zgarishi, xususan, ichki yo'llar orqali aloqa o'rnatish dashtda aholi punkti va xo'jalik faoliyatining ma'lum darajada saqlanib qolishini ta'minladi.

Arxeologik topilmalar va tarixiy manbalar Ko'kdala atrofida savdo yo'llari bo'lganini, Buyuk ipak yo'lida joylashgani bois, rabotlar va karvonsaroylar faoliyat olib borganini ko'rsatadi. Ko'kdala dashtidan o'tgan strategik ahamiyatga ega tranzit savdo yo'liga

Shahrisabzdan boshlangan Chiroqchi — Ko'kdala dasht yo'li tutashib ketgan.

Asrlar davomida shakllangan bunday turmush tarzi va tarixiy savdo chorrahasi sifatidagi mavqe XIX-XX asrlarga kelib hududiy va ma'muriy qayta tashkil etish jarayonlarini boshdan kechirdi. Yaqingacha Ko'kdala dashti tarixan Chiroqchi hududining ajralmas qismi sifatida rivojlanib keldi. Aholi sonining muttasil o'rishi, dehqonchilik va chorvachilik ko'lamli kengayishi natijasida hududda yangi aholi punktlari paydo bo'ldi. Biroq yagona ma'muriy markazga bog'langan, geografik jihatdan nihoyatda katta maydonni egallagan bu hududda vaqt o'tishi bilan boshqaruv qiyinchiliklari to'planib bordi.

Xususan, Ko'kdala hududi aholisi uchun tuman markazi hisoblangan Chiroqchi shahriga borib-kelish katta mashaqqatga aylandi. Ayrim uzoq qishloqlardan markazgacha bo'lgan masofa 100 kilometrdan ortib, oddiy bir ma'muriy hujjat olish yoki tibbiy xizmatdan foydalanish uchun kunlab vaqt va ortiqcha mablag' talab qilinardi. Maktablar va tibbiyot muassasalarining yetishmasligi, mavjudlarining esa eskiligi, elektr energiyasi, ichimlik suv va gaz ta'minotidagi surunkali uzilishlar aholining turmush darajasini keskin pasaytirdi. Hududda sanoat korxonalari va yangi ish o'rinlarining yo'qligi sababli ishsizlik darajasi ortib, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami kengaydi. Yagona tuman hokimligi va mutasaddi tashkilotlar esa juda katta maydon va aholiga ega hududni birdek nazorat qilish, muammolarni o'z vaqtida hal etish va moliyaviy resurslarni teng taqsimlash

tuman aholisining markazga qatnashidagi muammolar, yo'l va infratuzilma masalalari, ma'muriy xizmatlarning barcha qishloqlarga birdek yetkazib berilishini ta'minlash zarurligini qayd etdi. Shu munosabat bilan

mashhur bo'lgan. Chiroqchi tumani tarkibida bo'lgan davrlardayoq bu hududdagi asosiy qishloqlar va hududiy massivlar aynan ushbu nom bilan atab kelingan. Ya'ni bu nom hudud uchun yangi emas.



Hakim YO'LDOSHEV olgan suratlar.

Chiroqchi tumanini ikkita mustaqil tumanga ajratish taklifini bildirdi. Bu taklif aholining ehtiyojlari va hududning kelgusi taraqqiyoti nuqtayi nazaridan o'ta muhim ahamiyatga ega edi.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan bu taklif nafaqat Chiroqchi aholisi, balki butun mamlakat ahli uchun muhim o'zgarishlardan

— Ko'kdala hududi bir nechta yirik yo'l chorrahalari tutashgan, Chiroqchi tumanining boshqa olis hududlariga nisbatan infratuzilmasi va iqtisodiy faalligi yuqori bo'lgan markaziy nuqta hisoblanadi, — deydi Ko'kdala tumani hokimi Xurram Jo'rayev. — Shu bois, uning ramziy nomi sifatida Ko'kdalaning tanlanishida joylashuvning logistik qulayligi katta rol



imkoniyatiga ega emas edi. Bunday og'ir ijtimoiy-iqtisodiy va infratuzilmayi inqiroz yillar davomida to'planib, hududni zamon talablariga mos ravishda tubdan isloh qilishni hayotiy zaruratga aylantirdi.

2021-yil 11-oktabr kuni Prezidentimiz Qashqadaryo viloyatiga tashrif buyurdi. Davlatimiz rahbari saylovoldi uchrashuvlari davomida Qashqadaryo aholisi bilan muloqot qildi. Mamlakatimiz yetakchisi o'z nutqida

biri sifatida baholandi. 2022-yil 2-mart kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yalpi majlisida Ko'kdala tumanini tashkil etish to'g'risidagi masala rasman muhokama qilindi. Majlisda yangi tashkil etiladigan tumanga Chiroqchi hududidan 177 ming aholi yashaydigan 171 ming gektar yer maydoni ajratilishi ta'kidlandi. Shuningdek, yangi tuman tashkil etish masalasida ijtimoiy-iqtisodiy omillar ham e'tiborga olindi.

2022-yil 17-mart kuni Oliy Majlis Senati yig'ilishida Ko'kdala tumanini tashkil etish to'g'risidagi tegishli qaror qabul qilindi. Shu kundan boshlab Ko'kdala tumani mustaqil ma'muriy birlik sifatida faoliyatini boshladi.

Yashil, keng va hosildor dala

Yangi tuman nomini tanlashda hududning tarixiy va geografik xususiyatlari hisobga olindi. “Ko'kdala” nomi o'zbek tilida “yashil, keng va hosildor dala” ma'nosini anglatadi. Mazkur nom hududning tabiiy boyliklari, dehqonchilik va chorvachilik uchun mos sharoiti, shuningdek, bu yerda yashovchi aholining tarixiy urf-odatlariga mos keladi.

Hudud rasman tuman maqomini olguniga qadar ham mahalliy aholi orasida va ma'muriy-hududiy chegaralarda Ko'kdala nomi bilan

o'ynadi. Davlatimiz rahbari 2022-yil 21-aprel kuni viloyatga tashrifi chog'ida Ko'kdala tumanini tashkil etish haqida gapirganda: “Ko'kdala tumanini tashkil etishdan asosiy maqsad bu yerda yashaydigan 182 ming nafar aholi uchun munosib turmush sharoitini yaratish, hududni iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash bo'yicha ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarishdir”, degan edi. O'sha yili mamlakatimiz yetakchisi Ko'kdala tumanining ma'muriy markazi Yettitum shaharchasida infratuzilmani rivojlantirish loyihasi bilan tanishdi. Loyihaga ko'ra, Yettitum shaharchasida tuman hokimligi va mahalliy idoralar uchun binolar, “Yangi O'zbekiston” massivi, bog'cha va maktablar, poliklinika, istirohat bog'i, xizmat ko'rsatish va savdo majmualari barpo etishga start berildi.

Tuman ma'muriyatining shakllanishi mustaqil va zamonaviy boshqaruv tizimini yaratish yo'lidagi muhim qadam edi. O'tgan to'rt yil davomida bu gaplar o'z isbotini topdi. Yettitum shaharchasida rejalashtirilgan barcha ma'muriy binolar foydalanishga topshirilib, yangi Yettitum shaharchasi qad rostladi.

Xususan, shaharchada 120 o'rinli markaziy shifoxona va tibbiyot birlashmasi aholiga keng tarmoqli xizmat ko'rsatishni boshladi. E'tiborsiz, tuman hokimligi binosi mamlakatimizda yangi tajribaning boshlanishi bo'ldi. Bu yerda 38 ta davlat idorasi bir joyda jamlangan. Bu aholiga katta qulaylik

yaratmoqda. Avvallari biror yumush yuzasidan olis masofalarni bosib, Chiroqchi tumani idoralarga qatnagan fuqarolar endi barcha xizmatlarni o'ziga yaqin joyda olyapti. O'tgan davr mobaynida 20 dan ortiq maktab binosi, 60 ga yaqin bog'cha, mahalla ma'muriy binolari qurildi. Oldin butun hududda atigi uchta bog'cha bo'lganini hisobga olsak, bu raqamlar juda katta ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, tumanning ko'rkiga ko'rk qo'shgan, 9000 dan ortiq kitob zaxirasiga ega zamonaviy kutubxona va bir qancha markazlarni bag'riga olgan ma'naviyat maskani binosi va sport saroyi, madaniyat saroyi hamda musiqa maktabi foydalanishga topshirildi.

Umumiy maydoni 5 072 kvadrat metr bo'lgan uch qavatli AT park binosida “MAAB Innovation” kompaniyasi va rezidenti hisoblangan eksportchi kompaniya — “Unicall” ofisi joylashgan. Iqtisodiy salohiyatni faol oshirish va aholini ish o'rinlari bilan ta'minlash maqsadida AT park tuman hokimiyati bilan birgalikda qulay biznes muhiti va rivojlangan infrastrukturani yaratish bo'yicha sa'y-harakatlarni birlashtirdi.

Xususan, AT park filialida “Zero Risk” dasturiga qiziqish bildirgan kompaniyalar faoliyatini boshlash uchun barcha zarur sharoitlar yaratilgan. Bundan tashqari, filialning har bir qavatida kovorking zona mavjud. U yerda frilanserlar o'z loyihalari ustida qulay sharoitlarda ishlashi mumkin. Ko'kdala tumanidagi AT park filialida maxsus ta'lim sinflari ham tashkil etilgan. Bu yerda barcha xohlovchilar sifati AT ta'limi olishi va chet tillarni o'rganishi, kelgusida tumanni tark etmagan holda yetakchi xorijiy kompaniyalarda ishlashi mumkin. Ushbu maqsadni amalga oshirishda “MAAB Innovation” outsorsing sohasida xalqaro bozor bilan muvaffaqiyatli faoliyat olib borayotgan o'zbek AT kompaniyasi yordam beradi. “MAAB” mahalliy yoshlarni talab yuqori bo'lgan AT yo'nalishlarida o'qitmoqda.

Ushbu tashkilotda ta'lim kursini muvaffaqiyatli tamomlagan talabalar “MAAB Innovation” kompaniyasida kafolatlangan ish o'miga ega bo'lishi va AQSHdagi yirik AT korxonalari loyihalarini amalga oshirishi mumkin. Ko'kdala tumanida yirik AT va outsorsing kompaniyalari joylashgan, shuningdek, yangi ish o'rinlari yaratilgan. AT park Ko'kdala filiali hamda AT Community of Uzbekistan hamkorligida ko'kdalalik yoshlar uchun muhim seminarlar o'tkazib kelinmoqda.

— Ko'kdala yoshlari respublika miqyosidagi nufuzli tanlovlarda munosib ishtirok etib, yuqori natijalarga erishdi, — deydi AT park Ko'kdala filiali menejeri Omad Jo'raqulov. — Xususan, Promising AT Project IdeaThon tanlovida yoshlarimiz o'zlarining innovatsion loyihalarini bilan qatnashib, faxrlari 1-o'rinni egalladi. Shuningdek, AI Hackathon tanlovida sun'iy intellektga asoslangan innovatsion yechimlari bilan ishtirok etib, faxrlari 2-o'rinni qo'lga kiritdi. Mazkur yutuqlar AT park Ko'kdala filialida olib borilayotgan ta'lim sifati, amaliy loyihalar va yoshlarning salohiyati yildan-yilga ortib borayotganini yaqqol namoyon etadi.

Bugungi kunda Ko'kdala tumanida AT park tizimida 3 ta rezident korxona faoliyat yuritmoqda. Ushbu rezidentlar tomonidan axborot texnologiyalari sohasida xizmatlar ko'rsatilib, yangi ish o'rinlari yaratilaypti. Shuningdek, AT park ko'magida 3 nafar yosh frilanser xalqaro onlayn platformalar orqali xorijiy buyurtmachilar bilan ishlab, eksport xizmatlarini yo'lga qo'yg'an. Bu esa tumanda raqamli xizmatlar eksportini rivojlantirish va yoshlar bandligini ta'minlash borasidagi muhim natijalardan biri hisoblanadi.

Xalqaro brendga aylangan tarvuz

Bugungi kunda Ko'kdala tarvuzlari o'zining etaripsharliligi, shirin ta'mi va yuqori

sifati bilan nafaqat ichki bozorlarda, balki xorijiy davlatlarda ham katta talabga ega bo'lib bormoqda. Tumanda yetishtirilayotgan mahsulotlarning eksport hajmi yildan-yilga ortib, hudud iqtisodiy salohiyatining yanada mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

Ko'kdala dehqonlari aprel oyining oxiri va may oyining boshlaridayoq bozorlarga yangi uzilgan tarvuzlarni olib chiqmoqda. Bu hududda yilning to'rt faslida ham tarvuz uzilmaydi, ichki va tashqi bozorlarga mahsulot ketma-ket yetkazib beriladi. Dehqonlar mahalliy iqlim va mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanib, tarvuz yetishtirish hamda saqlashning sirlarini o'zlashtirgan. Ko'kdala, O'tamayli va ularga yondosh mahallalarda qo'lbola usulda tiklangan oddiy issiqxonalarini ko'rish mumkin. Bunday issiqxonalar juda oddiy va kamxarj bo'lib, odatda bir mavsum uchun quriladi va keyin yig'ishtirib olinadi. Chunki bir joyga ikkinchi yil qayta tarvuz ekish kutilgan hosilni bermaydi. Ko'kdalada yozning issiq va quruq kelishi, quyosh nurining mo'lligi va suv ta'minoti tarvuz yetishtirish uchun juda qulay.

— Ko'kdalada tarvuz organik usulda, ya'ni kimyoviy vositalardan imkon qadar kam foydalanilgan holda yetishtiriladi, — deydi 16 yillik tajribaga ega mirishkor Yaxshimurod Qobilov. — Sug'orilmaydigan lalmi yerlarning unumdorligini saqlash uchun navbatlab ekish tizimi qo'llanadi. Bir yil g'alla ekilgan yerga kelasi yili dam berilib, kuzda yoki erta bahorda shudgorlanadi. Lalmi tarvuzlar shirinligi va uzoq muddat saqlanishi bilan ajralib turadi. Samarqand viloyati bilan chegaradosh va adirlıklar bag'rida joylashgan Sho'rquduq qishlog'i aholisi lalmi tarvuz yetishtirish hamda uni tabiiy usulda uzoq saqlash bo'yicha katta tajribaga ega. Kuzda yig'ilgan hosil adirlıklar bag'rida, 15-30 metr pastlikda qazilgan maxsus yerto'lalarda saqlanadi. Har bir yerto'laning balandligi 2-2,5 metr, kengligi 3-3,5 metr, uzunligi esa 20-50 metrni tashkil etadi. Ushbu joylarda harorat yil davomida bir xil saqlangan bois, tarvuzlar o'z tarkibi va ta'mini yo'qotmaydi.

Ko'kdala tarvuzlari ichki bozordan tashqari dunyoning bir qator mamlakatlariga eksport qilinadi. 2022-yilda tumanda tomchilatib sug'orish texnologiyasi asosida 10 ming gektar maydonga tarvuz ekilgan bo'lsa, o'tgan yilda umumiy maydon 25 ming gektarga yetdi. Buning evaziga 19 ming nafar aholi doimiy, 21 ming nafari esa mavsumiy ish bilan ta'minlandi. Bundan tashqari, Qashqadaryo viloyatining Ko'kdala tumanida fitosanitariya va sanitariya xizmatlarini muvofiqlashtirib turuvchi maxsus “Tarvuz eksporti shtabi” tashkil etilgan. Ushbu shtab tarvuz yetishtiruvchilar, eksportyorlarga ko'maklashishga mo'ljallangan. Bugungi kunda Ko'kdala, Koson, Chiroqchi va boshqa tumanlardagi 679 nafar fermer va dehqon xo'jaligiga qarashli 20 ming gektardan ortiq maydon raqamlashtirilib, har bir yer uchastkasining “Dala ID” ma'lumotlari shakllantirildi. Bu esa mahsulotning kelib chiqish manbai va fitosanitar holatini to'liq kuzatib borish imkonini yaratmoqda.

Ayni paytda Qashqadaryo tarvuzlari Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Mo'g'uliston, Belarus, Gruziya va Latviya kabi davlatlar bozorlariga eksport qilinmoqda. Joriy mavsumda 59 ming 779 tonna tarvuz eksport qilinib, 22,45 million dollarga teng mahsulot jahon bozoriga chiqarilgan.

Hududda mahalliy tadbirkorlar tomonidan tashkil etilgan suv tejakor uskuna ishlab chiqaruvchi sexlar ham borki, ushbu korxonalarda tarvuz maydonlarida foydalanib, keyin chiqindi sifatida tashlab yuborilgan polietilen materiallardan turli o'lchamdagi shlang va quvurlar ishlab chiqariladi. Bunday tashabbuslar nafaqat suvni tejash va yer unumdorligini oshirish, balki atmosfera hamda zamin ifloslanishining oldini olishga ham xizmat qiladi.

Shunday zamonaviy sanoat korxonalaridan biri “S PROMAX PLAST PREMIUM” bo'lib, u 2024-yil dekabr oyida tashkil etilgan. Ushbu korxona ishlab chiqarish jarayonlarida ekologik xavfsizlik va resurslardan oqilona foydalanishga alohida e'tibor qaratmoqda. Korxonada sanoat plastik chiqindilarini qayta ishlash tizimi joriy etilgan. Loyiha doirasida har yili 900 tonnagacha plastik sanoat chiqindilari qayta ishlanadi. Natijada ilgari xorijdan import qilingan ayrim qimmatbaho kimyoviy xomashyolar o'rinni mahalliy qayta ishlangan xomashyo bosmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Ko'kdala allaqachon xaritadaqil ma'muriy birlik chegarasidan chiqib, ulkan ijtimoiy-iqtisodiy yetarilishning amaliy ifodasiga, ramzlaridan biriga aylanib bo'ldi. Oldin deyarli barcha imkoniyatlari cheklangan hudud qisqa vaqt ichida zamonaviy qiyoفا kasb etib, rivojlanishning yangi sur'atini ko'rsataypti. Yo'llar, maktablar, shifoxonalar, ish o'rinlari, ma'rifarga, san'atga berilgan e'tibor — bularning barchasi xalqparvar siyosat samarasidir. Bugungi zamonaviy tumanlar qatoridan Ko'kdala ham munosib o'rin egallayotgani, hududda hayot sifatining o'zgarib, ishblarmonlik muhiti, yo'l-transport va ijtimoiy infratuzilmaning shiddat bilan taraqqiy etib borayotgani bu o'sish va o'zgarishlar vaqtinchalik tashabbus emas, balki aniq hisob-kitobga asoslangan tizimli taraqqiyot natijasi ekanini ko'rsatmoqda.

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Qabulxona: (71) 233-56-33
E'lonlar bo'limi: (71) 233-70-98

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul.

E-mail: info@yuz.uz
Be6-caifr: www.yuz.uz; (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-846.

29305 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasida chop etiladi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Jonibek Alijonov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy